



NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2022- YIL YANVAR-AVGUST (DASTLABKI MA'LUMOT)


Tel.: 69-277-84-80

www.namstat.uz


2022- yil yanvar-avgust oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-avgust oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 10 921,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,6 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,5 % ni tashkil etdi.



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati 161,0 % ga o'sishi hisoblanadi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 41,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini tashkil etdi.




2022- yil yanvar-avgust oylarida



2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8682,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,5 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 % ni (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 1,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,5 % (6,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 12,8 % (12,2 %) va quyi texnologiyalisi – 77,4 % (79,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 37,7 % (2021-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 19,5 % (2021-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,8 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,7 % (2021-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 134,7 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,0 % (2021-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 5,0 % (2021-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 136,2 %) ni tashkil etdi


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korhonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari






2022-yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 80,9 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2021-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 3,3 % ga kamaygan), 12,1 ming tonna paxta tolasi (56,6 % kamaygan), 9,1 ming. tonna yog' mahsulotlari (8,7 % ga ortgan) hamda 20,7 ming tonna paxta chigiti (51,3 %ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish




Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 1,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 113,0 % ga oshgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % ga pasayib, fizik hajm indeksi esa, 6,4 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 104,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 339,1 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 4,0 % ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 388,4 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1548,5 mlrd so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 1811,5 mlrd so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 263 mlrd sumga ga ortgan.




Ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 301,7 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa 2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 322,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 21,0 mlrd. so'mga oshgan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,0 %ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 24,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 122,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 93,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2883,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish


2021-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 12,4 % ni, yani jami 1058,6 mlrd so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 10,0 % ni tashkil etib 1090,0 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 31,4 mlrd. so'mga oshgan.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 152,1 mlrd. so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida Namangan viloyati bo'yicha 395,4 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 3,6 % ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 6,9 mlrd. so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,6 mlrd. so'mga ko'payib, 7,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, yani 147,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-avgust oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 6,7 mlrd. so'mga ko'paygan va 154,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2102,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 19,3 % ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 692,3 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4383,5	4184,5	-199,0
Issqlik energiyasi, ming gkal	49,6	53,8	- 4,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 94,8 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 %ini) tashkil



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 8,2 mlrd. so'm yoki 15,6 % ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 2,3 mlrd. so'mga kamaygan.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6173,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish 119,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 56,5 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




Nooziq-ovqat mahsulotlar

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 39,5 % ni, shuningdek, Chust tumani 11,7 % ni, To'raqo'rg'on tumani 9,6 % ni, Kosonsoy tumani 8,1 % , Namangan tumani 7,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 2438,7 mlrd. so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 39,5 %, Chust tumanida 730,7 mlrd. so'm bo'lib, 11,7% ni shuningdek, To'raqo'rg'on tumanida 595,0 mlrd so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 9,6 %ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm



Namangan viloyati

4 652,0 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-avgust





6 173,9 mlrd/ so'm

2022- yil yanvar-avgust



Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 37,0% shuningdek, Chust tumani 15,4 %, To'raqo'rg'on tumani 12,7 % ni tashkil etadi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Namangan viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib 45,8 % ni, shuningdek, Uchqo'rg'on tumani 10,8% ni, Namangan tumani esa 8,4 %ni tashkil etdi.



Namangan viloyati

1705,1 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-avgust

1861,0 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-avgust






o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 36,1 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 20,7 %ni, Chust tumani 9,0 %ni, Uchqo'rg'on tumani 6,1 % tashkil etdi.


Namangan viloyati



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (9 615,1 ming so'm), Namangan shahrida (5 948,5 ming so'm), Namangan shahrida (5 948,5 ming so'm), tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 708,1 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.



 o'sish sur'ati
 ming. so'm

Namangan viloyati

2021- yil

2 893,1 ming. so'm

2022- yil

3 708,1 ming. so'm



2021- yil

112,6 %




2022- yil

107,2 %

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4641,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,5 % ni tashkil etdi.


Namangan viloyati




jamidagi ulushi
mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Namangan viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 096,3 ming so'm bo'lgani holda, Namangan shahrida – 3 668,2 ming so'mni, Chust tumanida 2 651,2 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 2 533,1 so'mni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
ming. so'm



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 7 553 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2 877 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,1 % i) Namangan shahriga, 586 tasi (7,8 %) Kosonsoy tumaniga, 554 tasi (7,3 %) Uychi tumaniga, 534 tasi (7,1 %) Namangan tumaniga, 539 tasi (7,2 %) Chust tumaniga, 473 tasi (6,3 %) To'raqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

1 166 dona

2021- yil yanvar-avgust

978 dona

2022- yil yanvar-avgust




Jami faoliyat yuritayotgan

7 274 dona

2021- yil yanvar-avgust

7 553 dona

2022- yil yanvar-avgust



■ yangi tashkil etilgan
■ faoliyat yuritayotgan